

# **MINTAQADA TURISTIK-REKREATIONS SALOHİYATNI OSHIRISH VA UNING MINTAQAVIY INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI**

*Ibragimov O'tkir Nurmamat o'g'li*

*Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti*

*Muzropova Fazilat Ibroxim qizi*

*Qarshi davlat texnika universiteti assistenti*

*Fayzullayeva Lobar qizi*

*Qarshi davlat texnika universiteti assistenti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hududning turistik resurslari va turizm infratuzilmasi rivojlanish darajasini aniqlashning geografik asoslari, ularni yaxshilash bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar hamda tavsiyalar, turistik va rekreatsion resurslardan oqilona foydalanish, kelajakda turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish va mavjud turizm infratuzilmasini takomillashtirish masalalari batafsil yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** turizm resurslari, turizm geografiyasi, arxitektura, tarixiy yodgorliklar, madaniy ob'ektlar.*

## **МЕРЫ ПО УВЕЛИЧЕНИЮ ТУРИСТСКО-РЕКРЕАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА И УЛУЧШЕНИЮ ЕГО РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ**

*Ибрагимов Откир Нурмамат угли*

*Доцент Каршинского государственного технического университета*

*Музропова Фазилят Ибрагим кизи*

*Доцент Каршинского государственного технического университета*

*Файзуллаева Лобар кизи*

*Доцент Каршинского государственного технического университета*

***Аннотация:** В статье подробно рассматриваются географические основы определения уровня развития туристских ресурсов и туристской инфраструктуры региона, научно-практические предложения и рекомендации по их совершенствованию, рациональному использованию туристско-рекреационных ресурсов, развитию различных направлений туризма в перспективе, совершенствованию существующей туристской инфраструктуры.*

***Ключевые слова:** туристические ресурсы, география туризма, архитектура, исторические памятники, культурные объекты.*

## **MEASURES TO INCREASE TOURIST-RECREATIONAL CAPACITY IN THE REGION AND IMPROVE ITS REGIONAL INFRASTRUCTURE**

***Ibragimov O'tkir Nurmamat ugli***

***Associate Professor, Karshi State Technical University***

***Muzropova Fazilat Ibroxim kizi***

***Assistant, Karshi State Technical University***

***Fayzullayeva Lobar kizi***

***Assistant, Karshi State Technical University***

***Annotation:** This article discusses in detail the geographical foundations for determining the level of development of the region's tourist resources and tourism infrastructure, scientific and practical proposals and recommendations for their improvement, the rational use of tourist and recreational resources, the development of various areas of tourism in the future and the improvement of the existing tourism infrastructure.*

**Keywords:** *tourism resources, tourism geography, architecture, historical monuments, cultural objects.*

**KIRISH** So'nggi yillarda Qashqadaryo viloyatida sayyohlar oqimini ko'paytirish va turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mahalliy va xorijiy sayyohlarning mintaqada yaratilgan sharoitlar haqidagi fikrlarini o'rganish, shuningdek, Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash maqsadida turistik oqimlarni o'rganish, hududlarda turistlarni sayyohlik obyektlariga tashrif buyurishini tadqiq va tahlil qilish hamda turizmni rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan kamchiliklarni aniqlash, tadqiqotning asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Sotsiologik so'rovlar orqali ayniqsa, aholining ijtimoiy demografik holatini o'rganishda ko'p qo'llaniladi. Anketa so'rovlari ma'lum maqsaddan kelib chiqib, keng qamrovli tuzilganligi tadqiqotni samarali o'tkazishda muhim ahamiyatga ega. Aholi turli qatlamlarining dam olishga munosabati, talab va ehtiyojlarini keng o'rganish imkonini beradi. Turistik xizmatlar turistlarning yashash tarzini, harakatlanishini ta'minlash, turistlarning turistik obyektlarga bimalol kirishlari, turistik faoliyat jarayonida turistlarning turar joyi, ovqatlanishi, madaniy, kommunal, aloqa va boshqa ehtiyojlarini qondirishi nazarda tutiladi. Turizm va rekreatsiyani rivojlanishida, hududning turistik-rekreatsion salohiyatini, infratuzilma tizimlarini shakllantirishda turlicha omillar va shart-sharoitlarning ta'siri muhim hisoblanadi. Ular orasida tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, tibbiy-biologik, etnik, ijtimoiy-psixologik va boshqa omillar alohida o'rin tutadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI** Tog' va cho'l landshaftlari bu, maksimal estetik-resurs salohiyatiga ega bo'lgan rekreatsion hudud hisoblandi. Hududning ekologik holati va qo'riqlanadigan hududlar, qo'riqxona va milliy bog'lar tabiatini bir butun holda majmuaviy o'rganish, biologik va geografik jihatdan o'xshash bo'lgan hududlarning tabiiy resurslari va tabiiy sharoitidan oqilona foydalanish

turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda muhim omildir. Hozirgi kunda milliy tabiat bog'lari muhofaza qilinadigan va turizm-rekreatsiya maqsadida tashkil etiladi.

Turizmni rivojlantirishda A.P.Durovich va boshqa olimlar tarixiy-madaniy omillarga - mintaqadagi turli xil tarixiy-me'moriy yodgorliklar, aholining milliy, madaniy, diniy tarkibining xilma-xilligi va boshqa an'analarni kiritadi. Yu.A. Vedenin tarixiy-madaniy obyektlariga – sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi, transport, teatrlar, o'quv muassasalari, sport inshootlari, botanika va hayvonot bog'lari, etnografiya va folklorlar, diqqatga sazovor joylar, hunarmandchilik san'at namunalari, xalq urf-odatlar, bayram marosimlari va boshqa obyektlarini kiritadi [30]. Demak bu yerdagi obyektlarda, turizm va dam olishning barcha turlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqotchi V.I.Krujaln fikriga ko'ra, turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar quyidagilardan iborat: hududning iqtisodiy-geografik o'rni; qabul qiluvchi mamlakat va uning turistlarni asosiy yetkazib beruvchisi bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi; aholining ijtimoiy va kasbiy tarkibi; turistik infratuzilma va turar joy fondlari mavjudligi, .. transport vositalarini takomillashtirish; ma'lum bir hududda, ...xizmatlar uchun narx darajasi, aholining real pul daromadlari, ta'tilning davomiyligi, rekreatsion zonalar va turistik yo'nalishlar to'g'risida reklama va ma'lumotlar ishlab chiqish. Yuqoridagi barcha omillar hududda turizm va rekreatsiya sohasini rivojlanish darajasini belgilab beradi.

**METODOLOGIYA** Mintaqada turizmni rivojlantirishda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, infratuzilma omillari muhim hisoblanadi. Ular sayyohlik markazlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularni quyidagi 4 ta yirik guruhlariga ajratishimiz mumkin.

- tabiiy omillar - re'lef, iqlim, suv resurslari, mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, landshaftlar, ekologik holat, qo'riqlanadigan hududlar turistik mintaqalarning jozibadorligini oshiradi;

- ijtimoiy-iqtisodiy omillar - iqtisodiy-geografik o'rin, tarixiy-madaniy obyektlar, sug'urta va moliya, aholi daromadi, ta'lim, sosiologik, kriminogen, innovasiya, investisiya muhitini rivojlantiradi;

- infratuzilma omillari - mehmonxonalar va boshqa joylashtirish tizimi, ovqatlanish tizimi, transport xizmati, savdo shaxobchalari, ko'ngilochar shaxobchalari, madaniyat tashkilotlari, muhandislik-qurilish inshootlari infratuzilmaning rivojlanish darajasini belgilaydi;

- siyosiy omillar - geosiyosiy vaziyat, inqirozlar, siyosiy beqarorlik, iqtisodiyotni harbiylashtirish, chegaralarni ochish mamlakatlar bo'ylab sayyohlikni rag'batlantiradi yoki aksincha chegaralaydi.

Tabiiy omillar tarixan rekreatsiya va turizmni rivojlantirish uchun asos bo'lib kelgan. Tabiiy omillarga re'lef, iqlim, suv havzalari, o'simlik va hayvonot dunyosi, mineral suvlar va shifobaxsh balchiq kabilar muhim ahamiyat ega. Atmosfera umumiy sirkulyasiyasining namoyon bo'lishlaridan biri shamol bo'lib, u ayni paytda ob-havo sharoitlarining turizm va rekreatsiya uchun qulayligini belgilaydigan omillardan biri hisoblanadi. Rekreatsiyani tashkil etishda meteorologik elementlar, jumladan, qulay haroratni davomiyligi, quyosh nurlari davomiyligi, havoning nisbiy namligi va boshqalar insonlar salomatligi va uni tiklashda e'tiborga olinadi.

Suv havzalari turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, yozda suv havzalari qirg'oqlarida dam olish turlarining qulaylik darajasiga qarab qulay, nisbatan qulay va noqulay darajalarga bo'linadi. Cho'milish mavsumi suv havzalarida suvni harorati 18°C ga yetganda boshlanadi (cho'milish uchun qulay harorat, suvning harorati 18 dan 24 °C. Bu suv havzalarini rekreatsion zonalarga aylantirishga yordam beradi, hamda ko'plab dam olish va ko'ngilochar obyektlar (sanatoriya-kurortlar, dam olish uylari, turbazalar va boshqalar) joylashishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Suv havzalarining geoekologik roli turli tuman bo'lib, tog' va tekislik daryolari, chuqurligi va sho'rliqi bilan ajralib turuvchi ko'llar xilma-xil turistik sayohatlari va sport tadbirlari: ekstremal rafting, akvalang bilan suv ostiga

sho'ng'ish hamda yil bo'yi baliq ovini uyushtirishda muhim omil hisoblanadi. Demak, suv havzalarida rekreatsion faoliyat davolash-sog'lomlashtirish, sport va sayyohlik, baliq ovi va ovchilik faoliyatini o'z ichiga oladi.

O'simlik dunyosini turizm va rekreatsiyani rivojlantirishdagi ahamiyati juda katta bo'lib, o'simliklarning ionlashishi va fitonsid xususiyatlari tufayli landshaftning shifobaxsh ta'siri ular bilan bog'liq. O'rmonlar, jumladan, aralash va qarag'ay o'rmonlar eng yaxshi ionlashishga ega ekanligi aniqlangan. Dam olishda asosiy vazifani bajaradigan o'rmonlar, ushbu hududning sanitariya-gigiyena sharoitlarini ham belgilaydi. O'rmonlar insonlarni to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan himoya qiladi va yoz kunida havo haroratini 1-1,5 °C ga tushiradi, atmosfera namligini (30% gacha) oshiradi, atmosfera havosini sanoat ifloslanishidan ham tozalaydi. Turli xil daraxt turlarining chang o'tkazmaydigan xususiyatlari bir xil emas. Yil davomida 1 ga. o'rmon 50-70 tonnagacha changni filtrlay oladi. Masalan, archa barglari orqali har yili havodan 32 t/ga chang, qarag'ay - 36, eman - 56, olxo'ri - 68 t/ga gacha filtrlaydi, shovqinni va ifloslanishini kamaytiradi. Daraxt barglari sodir bo'lgan tovush energiyasining o'rtacha 25% ini o'zlashtiradi va bu energiyaning taxminan 75% aks ettiriladi va tarqatadi. Ignabargli o'simlik turlari eng yaxshi shovqin yutuvchi xususiyatlarga ega, bu esa rekreatsiyani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Hayvonot dunyosi turizm uchun ikkita qarama-qarshi funksiyani bajaradi: bir tomondan, u tanishuv, baliq ovi va ovchilik turizmi uchun turistik-rekreatsion resurs bo'lib xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, turizmni rivojlantirishda cheklovchi omil hisoblanadi. Tanishuv turizmida hayvonlar olami vakillarini, tabiiy yoki ular atrofiga yaqin bo'lgan turistik hududlarda sayyohlarga ko'rsatish yoki bevosita kuzatib borish imkoniyatiga ega. Turistik faoliyatda ovchilik va baliq ovi turizmi yovvoyi hayvonlar va baliqlarning turlari ko'p bo'lishiga ham bog'liq holda rivojlanadi.

Mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlar tibbiy-davolanish, sog'lomlashtirish turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mineral suvlar harorati, kislotalilik, minerallashuvi va gazlari tarkibi bo'yicha tasniflanadi. Mineral suvlar va

shifobaxsh balchiqlarning mavjudligi mintaqaning ko'plab hududlarida davolanish-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishda va turizm infratuzilmasining joylashishini ham belgilaydi. Tabiiy omillarning har tomonlama tahlil qilinganda, insonlarning yashash va dam olish faoliyati uchun qulaylik sharoitni baholashda, hududlarning qulay va noqulaylik darajasini ham belgilab beradi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR** Bugungi kunda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omili sifatida innovasion faoliyatdan foydalaniladi. Innovasion omillar ilmiy-texnik taraqqiyotni va turizm sanoatini kompyuterlashtirishni aniqlaydigan asosiy sayyohlik turlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi, iqtisodiyotning transport va aloqa, qishloq xo'jaligi, qurilish, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va boshqa muhim sohalariga katta ta'sir ko'rsatadi hamda iqtisodiy rivojlanish uchun katalizator vazifasini bajaradi. Demak, mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishi turizmni qay darajada rivojlanishini ham belgilaydi. Infratuzilma omillariga – mehmonxonalar va boshqa joylashtirish tizimi, ovqatlanish tizimi, transport xizmati, savdo shaxobchalari, ko'ngilochar shaxobchalari, madaniyat tashkilotlari, bank, muxandislik-qurilish obyektlari va boshqalar kiradi. Turizmning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri mamlakatdagi siyosiy vaziyat, inqirozlar, siyosiy beqarorlik, iqtisodiyotni harbiylashtirish yoki chegaralarni ochish siyosati, turizm sohasida ma'muriy nazoratni yengillashtirish bularning barchasi soliq va pul siyosatining birlashtirilishi mamlakat bo'ylab sayohat qilish imkoniyatlarini to'g'ridan-to'g'ri belgilaydi.

Markaziy Osiyo respublikalariga, jumladan, O'zbekistonga ham qo'shni Afg'onistondagi siyosiy vaziyat turizmning rivojlanishiga katta ta'sirini o'tkazib kelayapti va har bir mamalakatdagi siyosiy barqarorlik turizmni rivojlanishida muhim omil bo'ladi. Turizm sanoatining shiddat bilan rivojlanishi, jahon turizm bozorida raqobatning yuzaga kelishi, turizm infratuzilma faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi va ularning keyingi ixtisoslashuvini aniqlab beradi, hamda sohani rivojlantirishda yetarli

shart-sharoit mavjudligini hisobga olgan holda, turistik-rekreatsion resurslarining barcha turlarini yo'lga qo'yish orqali aholining iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini yaxshilashga erishish mumkin.

**XULOSA VA TAKLIFLAR** Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davriga kelib, turizm sohasi yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Zero hududlarning tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma salohiyatidan sayyohlik maqsadlarida samarali foydalanish o'z navbatida aholining bandlik darajasini oshirishda, turmush sharoitlarini yuksaltirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan, zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lgan turizm va rekreatsiyani ilmiy tadqiq qilish, hududlarning turistik-rekreatsiya salohiyatidan foydalanishning ilmiy-uslubiy masalalarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

- Turizm va rekreatsiya geografiyasiga doir ilmiy tadqiqotlar dastavval g'arb (Yevropa) mamlakatlarida vujudga keldi. Bu davrda fanning ilmiy nazariy asoslari ishlab chiqildi, turistik resurslarning mazmun-mohiyati hamda ularning turizm va rekreatsiyani rivojlanishidagi roli ochib berildi.

- Hududlarning rekreatsion turistik salohiyatini tahlil va tashhis qilishda, ularni turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan baholashda turizm va rekreatsion geografik tadqiqotlar ahamiyati va roli asoslandi.

- Turizm va rekreatsiyani rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tabiiy-iqlimiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilma, siyosiy va boshqa omillardan kompleks foydalanish, o'z navbatida sayohatning davomiyligini, turistik-ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish imkoniyatlarini aniqlaydi va sayyohlik oqimlarini ko'payishiga yordam beradi.

- O'zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlanishi uch davrga bo'lib o'rganildi. Bu davrlarda turizm va rekreatsiya geografiyasining nazariy va amaliy rivojlanish jarayoni hamda turistik-rekreatsion faoliyatining me'yoriy-xuquqiy poydevori barpo etildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2019-yil 18-iyul, "Turizm to‘g‘risida" No. ORQ-549.
2. Birjakov M.B. Turizmga kirish: darslik. 9-nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan. - Sankt-Peterburg, 2007. 184-bet.
3. Senin V.S. Xalqaro turizmni tashkil etish. Darslik. - Moskva: Moliya va statistika, 2004. 379-bet.
4. Rodomon B.B. Dam olish va turizmning geografik muammolari. // Hududiy ishlab chiqarish kuchlari tizimlari. - Moskva: Misl, 1971. 311-342-betlar.
5. Mahamadaliev R.Y., Mahmudov M.M. "Turizmda aholi bandligini oshirishning mintaqaviy jihatlari". O‘zbekistonda turizm va rekreatsiya rivojlanishining geografik muammolari va imkoniyatlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Chirchiq shahri, 2019-yil 11-12-oktabr. 115-bet.
6. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.
7. Fayzullayeva L.X. "Turizm va rekreatsion hududlardan samarali foydalanish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida)". QarDU. "Zamonaviy geografiyada innovatsion g‘oyalar: raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024-yil 25-26-oktabr